

TOSHKENTDAGI USMON MUS’HAFI TARIXI

To‘labboyeva Ruxshona Abdurazzoq qizi

O‘zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi

Islomshunoslik fakulteti, Tarix 4-bosqich talabasi

Annotatsiya: *Mazkur maqolada Toshkentdagi Usmon Mus’hafining tarixi, jamlanishi, Mus’hafning O‘zbekistonga qanday qilib kelib qolganligi, bugungi kundagi o‘rni, ahamiyati yoritib beriladi. O‘zbekistondagi Mus’hafning nima sababdan Sovet davrida Peterburgga olib ketilishi tahlil qilinadi. Shuningdek, uning Toshkentga qaytarilishi, Mus’haf ustida olib borilgan izlanishlar va tadqiqotlar, ko‘rib chiqiladi.*

Kalit so‘zlar: *Mus’haf, Suhufi Bakriya, Yamoma jangi, Shebunin, Makkiy, Shomiy, Basriy, Kufiy, Madina mus’haflari, Said ibn Usmon, Silsilatul orifin, Amir Temur, Fon Kaufman.*

Annotation: *In this article, the history and compilation of the Uthman Mushaf (the Samarkand Kufic Quran) in Tashkent, the circumstances of its arrival in Uzbekistan, and its contemporary role and significance are highlighted. The reasons behind the transfer of the Mushaf to St. Petersburg during the Russian imperial/Soviet period are analyzed. Furthermore, the process of its return to Tashkent, as well as the scientific inquiries and research conducted on the manuscript, are thoroughly examined.*

Keywords: *Mushaf, Suhufi Bakriya, Battle of Yamama, Shebunin, Meccan, Syrian, Basran, Kufan, Medinese Mushafs, Sa'id ibn Uthman, Silsilat al-Arifin, Amir Timur, Von Kaufman.*

Аннотация: *В данной статье освещается история и процесс составления самаркандского кувфического Корана (Мусхафа Усмана), находящегося в Ташкенте, а также история его появления на территории Узбекистана, его роль и значение в современном мире.*

В работе анализируются причины, по которым этот священный артефакт был вывезен в Петербург в советский период (в эпоху царской России и в начале советской власти). Также рассматриваются процесс возвращения Мусхафа в Ташкент, проведенные над ним научно-исследовательские работы и современные изыскания ученых.

Ключевые слова: *Мусхаф, Сухуфы Абу Бакра, Битва при Ямаме, Шебунин, Мекканский, Сирийский (Дамасский), Басрийский, Кувфийский, Мединские мусхафы, Саид ибн Усман, «Сильсилатул арифин», Амир Темур, Фон Кауфман.*

Kirish

Muqaddas Islom dinining birinchi manbasi bo‘lgan Qur’oni Karimning tarixi ustidagi tadqiqotlar hamisha olimlarning diqqat markazida bo‘lib kelgan. Butun ham G‘arbu Sharqdagi tadqiqotchilar qadimiy mus’haflar va ularni o‘rganish borasida qator ilmiy izlanishlarni jadal davom ettirmoqdalar.

Jahon bo‘ylab kechayotgan bu ilmiy harakatda O‘zbekiston tadqiqotchilarining ham ulushi bo‘lishi har jihatdan muhim. Xususan, hozirda dunyo sanoqli bo‘lgan ana shunday eng qadimiy mavjud mus’haflardan ikkitasi bizning yurtimizda saqlanar ekan, ularni ilmiy ravishda tadqiq etish uchun qiyosiy tahlilga zarurat tug‘ilishi tabiiy. Maqola mavzusi aynan shu maqsadga xizmat qiladi va ulardan eng asosiysi bo‘lgan Toshkentdagi Usmon mus’hafi tarixiga bag‘ishlanadi. Qadimiy mus’haflar musulmon xalqlar qatori bizning ham umumdiniy-ilmiy meroslarimizdan sanaladi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 24- mayda qabul qilingan “Qadimiy yozma manbalarni saqlash, tadqiq va targ‘ib qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2995-sonli qarori¹³¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev bugungi kundagi asosiy vazifalardan biri sifatida: “Tariximizni, madaniyatimizni, dinimizni alohida bir varaq ko‘lamida bo‘lsa ham, ularni to‘plab, xalqimizni, yoshlarimizni tanishtirish, bizning qanday buyuk va bebaho merosimiz borligini anglatish, farzandlarimizni shu ulug‘ merosga munosib etib tarbiyalash” ekanligini ko‘rsatib o‘tdi¹³².

Asosiy qism

Ushbu maqola Qur'oni Karimning yozma shaklga keltirilishi va mus’haf holiga jamlanishi jarayonini tarixiy-ilmiy nuqtai nazardan to‘liq qamrab olgan. Ushbu jarayon uch asosiy bosqichda — Payg'ambar (s.a.v.) davrida, Hazrati Abu Bakr Siddiq (r.a.) xalifaligi davrida va Hazrati Usmon ibn Affon (r.a.) xalifaligi davrida — amalga oshirilgani haqida so‘z boradi.

Birinchi bosqichda Payg'ambar (s.a.v.) hayotliklari davrida Qur'on oyatlari nozil bo‘lgani zahoti maxsus kotiblar — Zayd ibn Sobit, Ali ibn Abu Tolib, Ubay ibn Ka'b va boshqalar — tomonidan xurmo yaproqlari, kiyik terilari, suyak va tosh lavhalarga yozib borilgani, shu bilan birga minglab sahobalar tomonidan yod olingani yozilgan. Arablarning kuchli xotira quvvati va Qur'on tilovatini farz amal sifatida qabul qilishi bu muqaddas matnning buzilmasdan saqlanishini ta'minlagan.

Ikkinchi bosqich — Hazrati Abu Bakr (r.a.) xalifaligi davri — milodiy 632–634 yillarga, ya'ni hijratning 12-sanasiga to‘g‘ri keladi. Yamoma jangida Musaylimatul Kazzobga qarshi

¹³¹ <https://lex.uz/docs/3211987/query=xazina>

¹³² Sh.Mirziyoyev. Ta'lim va ma'rifat – tinchlik va bunyodkorlik sari yo'l. Islom hamkorlik tashkiloti Tashqi ishlar vazirlari 43-sessiyasining ochilish marosimidagi nutqi. Toshkent, O‘zbekiston nashriyoti

bo'lgan shiddatli to'qnashuvda 1200 nafar sahoba, shular jumlasidan yetmishga yaqin hofizi Qur'on shahid bo'ldi. Ushbu fojiali yo'qotish Hazrati Umar ibn Xattobda qattiq tashvish uyg'otdi va u Hazrati Abu Bakrga Qur'onni kitob shakliga keltirish zarurligini aytdi. Dastlab bu g'oyaga Payg'ambar (s.a.v.) hayotlarida amalga oshirilmagan ishni qilishdan ehtiyot bo'lib ikkilangan Hazrati Abu Bakr, oxir-oqibat, uning zarurligini anglab yetgan va ushbu ulkan mas'uliyat 23 yoshli qori sahoba — Zayd ibn Sobitga yuklatilgan¹³³. Shuningdek, Imom Buxoriy bu haqda shunday rivoyat qiladi: Zayd ibn Sobitdan rivoyat qilinadi: Abu Bakr menga: “Albatta, sen yosh, oqil odamsan. Seni ayblaydigan joyimiz yo'q. Rasululloh sollallohu alayhi vasallamning huzurlarida vahiyini yozar eding. Qur'onni izlab topib, jamlagin”, dedi. Allohga qasamki, agar menga bir tog'ni joyidan ko'chirishni buyurganlarida, men uchun Qur'onni jam qilishni amr qilganidan ko'ra og'ir bo'lmas edi¹³⁴. Men unga: “Qanday qilib Rasululloh sollallohu alayhi vasallam qilmagan narsani qilaszlar?!” dedim. U (menga): “Allohga qasamki, bu yaxshilikdir!” dedi. Abu Bakr menga qayta-qayta murojaat qilaverdi. Oxiri Alloh mening qalbimni Abu Bakr va Umar roziyallohu anhumoning qalbini ochgan ishga ochdi. Qur'onni izlab, xurmo daraxti po'stloqlari, tosh parchalari va odamlarning qalblaridan jamlay boshladim.

Masjid eshigi oldida o'tirib, ikki guvoh tasdiqlaydigan oyat yozuvlarini to'plab, yil davomida "As-Suhuf al-Bakriya" (Abu Bakr sahifalari) deb atalgan ilk to'liq mus'hafni yaratdi. Bu mus'haf Hazrati Abu Bakr, so'ng Hazrati Umar va nihoyat Payg'ambarimiz (s.a.v.)ning beva zavjasi, Umar (r.a.)ning qizi — Hafsa onamiz (r.a.) qo'lida saqlanib qolgan edi¹³⁵.

Uchinchi bosqich — Hazrati Usmon ibn Affon (r.a.) davrida, milodiy 651- yilda amalga oshirildi. Islom dini Arabiston yarim orolidan tashqariga kengayib, turli xalqlar orasida tarqalgach, sahobalar ta'lim bergan har xil lahjalardagi qiroatlar o'rtasida kelishmovchiliklar va hatto bir-birini kofirga chiqarish darajasiga yetgan tortishuvlar yuzaga kelgan edi. Sahoba Xuzayfa ibn Yamon (r.a.) ning Shom va Iroq qo'shinlari o'rtasida kuzatgan qiroat ixtiloflarini Hazrati Usmonga yetkazishi bu muammoni hal qilish zarurligini ko'rsatdi. Hazrati Usmon (r.a.) Hafsa onamizdan Abu Bakr sahifalarini olib, Zayd ibn Sobit boshchiligida Abdulloh ibn Zubayr, Sa'id ibn Os va Abdurrahmon ibn Horis ibn Hishomdan iborat maxsus guruh tuzdi. Ular Quraysh lahjasini asos qilib olib, yagona mus'haf — Usmon Mu'shafini — yaratdilar.

¹³³ Shayx Ismoil Maxdum. Toshkentdagi Usmon Mus'hafi tarixi Toshkent 2019.-B.18

¹³⁴ Imom Buxoriy. Oltin silsila. Sahihi Buxoriy. Toshkent, Hilol nashr-2018. J.6.-B.418. H.4986

¹³⁵ Abdullayev. A. Qur'onshunoslik o'quv qo'llanma. “Toshkent islom universiteti” nashriyot-matbaa birlashmasi Toshkent-2011.-B.30.

Ko‘chirilgan nusxalar Makkaga, Kufaga, Basraga, Shomga, Madinaga yuborildi; har bir mus’haf bilan birga uni o‘rgata oladigan bir qori ham jo‘natildi. Boshqa barcha lahjalardagi nusxalar yoqib yuborildi. Shunday qilib, Qur'on tilovatidagi ixtiloflarning oldi olingan edi.

Turli shaharlarga yuborilgan olti nusxadan Toshkentdagi, Qohiradagi, Basradagi, Damashqdagi va Madinada saqlanib kelgan nusxalar haqida tarixiy ma'lumotlar keltirilgan. Ushbu Mus'haflardan ba'zilari keyinchalik siyosiy va harbiy asoralarda boshqa mamlakatlarga olib ketilgan, bir qismining taqdiri noma'lum bo'lib qolgan. Bosh Mushaf — Hazrati Usmon (r.a.) shahid bo'lgan paytda qo'llarida bo'lgan nusxa — haqida turli rivoyatlar mavjud bo'lib, uning Fosda (Marokash), Shomda yoki boshqa joylarda saqlanishi haqida ilmiy bahslar davom etmoqda.

Hazrati Usmon ibn Affon (r.a.) ga nisbat beriladigan muqaddas Mus'hafning Samarqandga kelishi va undan keyingi taqdiri masalasi tarixiy jihatdan murakkab va ko'p qatlamli jarayon ekanligini ko'rsatadi. Mavjud manbalarda bu masalaga doir beshta asosiy rivoyat qayd etilgan bo'lib, ular o'zaro bir-birini inkor etmaydi, balki turli davrlar va sharoitlarda Mus'hafning bosib o'tgan yo'lini aks ettiradi.

Birinchi rivoyatga ko'ra, Mus'haf hijriy 54-yilda Said ibn Usmon tomonidan Samarqandga keltirilgan¹³⁶. Ikkinchi rivoyat esa Mus'hafning Imom Abu Bakr Qaffol Shoshiy vositasida Bag'doddan Movarounnahrda olib kelinganini bayon qiladi. Uchinchi va eng keng tarqalgan rivoyat – Amir Temur Sohibqiron tomonidan olib kelinishi – ko'plab tarixiy manbalarda tasdiqlangan bo'lib, ushbu rivoyatni Bibixonim madrasasidagi ulkan marmar lavh va Samarqand ulamolarining bevosita guvohliklariga asoslangan rasmiy hujjatlar ham qo'llab-quvvatlaydi. To'rtinchi rivoyat Xo'ja Ubaydulloh Ahrorning muridiga bog'liq bo'lsa-da, bu rivoyat “Rashahot” kabi ishonchli manbalarda o'z tasdig'ini topmagan. Beshinchi rivoyat esa Mus'hafning Amir Temur tomonidan 1402-yilda Anqara jangidan so'ng Sulton Boyazid kutubxonasidan olib kelinganini ta'kidlaydi.

Mazkur rivoyatlarning barchasini qiyosiy tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, Samarqanddagi Mus'hafning Amir Temur xazinasidan chiqqanligiga doir dalillar eng kuchli va hujjatli asosga ega. Mus'hafning kiyik terisiga qadimiy kufiy xat bilan yozilganligi, e'rob hamda nuqta belgilaridan xoli ekanligi uni Xulafoi Roshidinlar zamonasiga mansub noyob yodgorlik sifatida ilmiy jihatdan tasdiqlaydi¹³⁷.

XIX asrning ikkinchi yarmida Rossiya imperiyasining O'rta Osiyoga harbiy yurishi davomida 1868-yilda Samarqand bosib olinishi bilan birga Mus'haf ham mustamlakachilarning diqqat markaziga tushdi. 1869-yilda Zarafshon okrugi hokimi general

¹³⁶ Shayx Ismoil Maxdum .Toshkentdagi Usmon Mus'hafi tarixi.-Toshkent, 2019.-B.73.

¹³⁷ Abdumajidov.H. Usmon Mus'haflari matnlarining qiyosiy tahlili.Toshkent,2019.-B.7.

Abramovning topshirig'i bilan Mus'haf Xo'ja Ahror masjididan olinib, mahalliy ulamolarning majburiy imzolari bilan rasmiylashtirilgan hujjat asosida Toshkentga, so'ngra Peterburgdagi imperator kutubxonasiga jo'natildi. Ushbu jarayonda mustamlakachilar mahalliy aholining diniy hissiyotlarini hisobga olgan holda ehtiyotkorlik bilan harakat qilishgan va Mus'hafni saqlash hamda muhofaza etish bahonasini ilgari surgan, lekin aslida bu siyosiy va madaniy hukmronlikning bir ko'rinishi edi¹³⁸.

Peterburg kutubxonasida saqlanayotgan Mus'haf ilmiy hamjamiyat va musulmon ziyolilari tomonidan katta qiziqish bilan o'rganildi. Shebunin, Kun kabi rus sharqshunoslari va Ilyos Mirzo kabi tatar ziyolilari Mus'hafni tadqiq etib, uning qimmatbaho nusxalarini nashr qildilar. Shahobuddin Marjoniy va Muso Jorulloh kabi taniqli olimlar esa Samarqanddagi Mus'hafning aynan "Bosh Mus'haf" ekanligi haqidagi da'voga ilmiy shubha bildirdilar va bu masalada kuchli munozaralar yuzaga keldi. Biroq ularning o'zlari ham bu Mus'hafning qadimiy va muqaddas yodgorlik ekanligini inkor etmadilar.

1917-yil inqilobidan so'ng Mus'haf Petrograd viloyati musulmonlari qurultoyining talabi bilan Lenin imzolagan qaror asosida musulmonlarga qaytarilib, Ufaga ko'chirildi. Bu voqea, bir tomondan, yangi sovet hokimiyatining din va milliy qadriyatlar masalasidagi dastlabki murosaviy siyosatini aks ettirar, ikkinchi tomondan esa muqaddas yodgorlikning siyosiy ramzga aylanganini namoyon qilardi. Mus'hafning Samarqanddan olib ketilishi va keyingi sarguzashtlari nafaqat diniy, balki siyosiy va madaniy jihatdan ham katta ahamiyat kasb etuvchi tarixiy hodisa sifatida xotirada qoldi¹³⁹.

RSFSR XKS 1917-yil 9-(22)dekabrda muqaddas "Usmon Qur'onini musulmonlar s'ezdiga qaytarib berish to'g'risida"gi hujjatni tasdiqlaydi. Mus'hafi Usmon Qur'oni shu yili katta tantana bilan Ufa shahriga keltiriladi. Lekin bu bilan Turkiston musulmonlari tinchimadilar. Toshkent, Ufa va Moskva o'rtasidagi bir qancha o'zaro bordi-keldi va yozishmalardan so'ng markaziy hukumatning 1923-yil 25-iyundagi qarori bilan Qur'on kitobi o'zining haqiqiy vorislari bo'lgan Turkiston musulmonlariga beriladi. Usmon Qur'onini Ufadan Toshkentga olib kelish uchun Toshkent shahar va Sirdaryo viloyati islom jamiyati tomonidan jamiyat raislari shayx Muhammadxo'ja boshchiligida obro'li hay'at tuziladi. Bu hay'atga Zahirutdin A'lam va O'zbekiston hukumati vakili Qosimxo'jaevlar kiradi. 1924-yil 18-avgust kuni Tatariston, Boshqirdiston va Turkiston ulamolaridan tashkil topgan sharafli soqchilar kuzatuvida maxsus poyyivezd Mushafi Usmonni Ufadan Toshkentga olib keladi. U bir qancha vaqt Toshkentdagi masjidlardan birida saqlanadi, so'ngra xavfsizlik maqsadlarini ko'zlab O'zbekiston xalqlari tarixi muzeyiga topshiriladi.

¹³⁸ Abdullayev.A.G',Rahimjonov D.O,Ziyodov.Sh Toshkentdagi Usmon Mus'hafi- Toshkent,2015. –B.8.

¹³⁹ <https://ishonch.uz/oz/news/usmon-mus'hafi-uchun-asrlar-osh-kurash>

1989-yil 14-mart kuni Toshkentda bo‘lib o‘tgan umumiy Musulmonlar to‘rtinchi qurultoyida O‘zbekiston hukumatining qarori bilan Mus’hafii Usmon musulmonlar ixtiyoriga qaytarib berilganligi e‘lon qilindi va bu muqaddas Mus’hafii Usmon Qur’oni Movarounnahr musulmonlari Diniy idorasi qoshidagi “Mo‘yi Muborak”kutubxonasida saqlandi.

Islom tarixining eng ulug‘ va muqaddas qo‘lyozmalaridan biri — Hazrati Usmon (r.a.) davrida ko‘chirilgan USMON MUS’HAFI 2025-yil 13-noyabr kuni Toshkentdagi Hazrati Imom majmuasida joylashgan “Mo‘yi muborak” madrasasi muzeyidan Islom sivilizatsiyasi markaziga ko‘chirildi¹⁴⁰.

G‘arb tadqiqotchilaridan A.F.Shebunin, Mixail Marks, Tobias J. Yoxman, Fransua Derosh, Noja Nosed, Doktor Gerd-R. Puin, I. Mendelson, E.Rezvan¹⁴¹ aynan ushbu qadimiy mus’haflarning bir yoki nechitasi ustida tadqiqot olib borgan.

Shuningdek ushbu maqolada o‘zbek olimlaridan Shayx Ismoil Maxdum, Habibulloh Solih, A. Hasanov, O.Alimov, F.Haqberdiyeva, O.Eltoevlarning asarlari, shuningdek, “M.G‘ulomovlar tomonidan 2009-yilda chop etilgan “Qur’oni karim: nozil qilinishi va kitob bo‘lib jamlanishi tarixi” nomli risolasi, TIU olimlari A.F.Abdullayev, D.O.Raximjonov, Sh.Yu.Ziyodov tomonidan tayyorlangan “Toshkentdagi Usmon mus’hafii” kitobi, A. Usmonov, M. G‘ulovlar o‘zbek, rus, ingliz va arab tilida nashr etgan “Toshkentdagi hazrati Usmon mus’hafii tarixi” ijtimoiy-ilmiy nashrlarida so‘z boradi¹⁴².

Xulosa

So‘nggi yillarda yurtimizda diniy qadriyatlarni qayta tiklash borasida tashlangan muhim qadamlardan biri – Qur’oni karimning O‘zbekistonda nashr qilinishi bo‘lmoqda. Mus’haf nashr qilishning o‘ziga xos ilmiy talablari mavjud bo‘lib, ushbu ilmiy ishda taqdim etilgan ma‘lumotlar bu borada muhim asos bo‘lib xizmat qiladi.O‘zbekistonda mavjud Mus’haf tarixini o‘rganish ,tadqiqotlar olib borish bugungi kundagi dolzarb masalalardan biridir.Bu bo‘yicha amalga oshirilgan bir qancha ishlar o‘z natijasini bermoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1.Abdumajidov.H. Usmon Mus’haflari matnlarining qiyosiy tahlili.Toshkent,2019.-B.7.
- 2.Abdullayev.A Qur’onshunoslik o‘quv qo‘llanma. “Toshkent islom universiteti”nashriyot-matbaa birlashmasi Toshkent-2011. 30

¹⁴⁰ <https://society.uz/uz/news/detail/news/2365>

¹⁴¹ Francois Deroche, Sergio Noja Nosed. Sources of transmission manuscripts du the Coranique; Les manuscrits de style Higazi. 2001; Резван Е.А. Коран и его толкования (тексты, переводы, комментарии). М – 2005

¹⁴² Abdumajidov. H.Abdumajidov.Usmon Mus’haflari matnlarining qiyosiy tahlili.Toshkent,2019.-B.Usmon Mus’haflari matnlarining qiyosiy tahlili.Toshkent,2019.-B.7

3. Abdullayev. A.G', Rahimjonov D.O, Ziyodov. Sh Toshkentdagi Usmon Mus'hafi-Toshkent, 2015. – B.8.
4. Jaloliddin Suyutiy. Al-Mazharu fiy ulumil lug'ati va anvoiho. 1-jild. "Maktabatul asriya" nashriyoti, Bayrut 1998. – B. 136.. ; 5. <https://www.hindawi.org/books/91931968/2.1/>
6. Mahmud Shokir. Tarixi islomiy. – Maktabi islomiy, 1991. B 21
7. Shayx Ismoil Maxdum .Toshkentdagi Usmon Mus'hafi tarixi –Toshkent, 2019.-B.23.
8. Imom Buxoriy. Oltin silsila. Sahihi Buxoriy. Toshkent, Hilol nashr-2018. J.6.- B.418. H.4986
9. Резван Е. ал-Кур'ан // Ислам: Энциклопедический словарь. – М.: Наука. Главная редакция восточной литературы, 1991. – С. 142.
10. Muhammad Tohir ibn Abul Qodir Kurdiy. Tarixul Qur'an (Qur'on tarix)"Al-Fath" matbaasi. Qohira, 1946.-B.119.
11. <https://aroblar.uz/uz/people/qaffal-shoshi>
12. <https://ishonch.uz/oz/news/usmon-mus'hafi-uchun-asrlar-osha-kurash>
13. Sodiqov. R. Shamsutdinov P. Ravshanov va boshq. O'zbekistonning yangi tarixi. Turkiston chor Rossiyasi mustamlakachiligi davrida/ T.: Sharq, 2000.-B. 92.
14. Shahobuddin Marjoniy .Marjoniy tarjimai xoli –Maorif bosmaxonasi .Qozon. 1915-y.- B. 117.
15. Шебунин А.Ф. Куфический Коран // ЗВОРАО Имп. СПб. Публичной библиотеки – Санкт-Петербург, 1882; Marks, Tobias J. Jocham, Zu den Datierungen von Koranhandschriften durch die 14 C-Metode. F. 2015;
16. Francois Deroche, Sergio Noja Nosedo. Sources of transmission manuscripts du the Coranique; Les manuscripts de style Higazi. 2001; Резван Е.А. Коран и его толкования (тексты, переводы, комментарии). М – 2005